https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Lazzat Duysenovna Berdimuratova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Qozoq tili va adabiyoti“ kafedrasi
Navoiy davlat unuversiteti,
Email:berdimuratovalazzat022 @gmail.com

TOPONIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING SINTAKTIK USULLARI

Annotatsiya

Maqolada turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilining ayrim sintaksis shakllarida so‘z yaratilishi, hududning qo‘shma toponimlarini tahlil qilish, bu nomlar atributiv, izafetik va predikativ aloqa asosida paydo bo‘lganligini turkiyshunos olimlar asarlarida keltirilgan dalillar asosida yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar

so‘z yaratilishi,atributiv, izofet, predikativ, qo‘shma toponim

Аннотация

В статье рассматривается образование слов в тюркских языках, особенно в некоторых синтаксических формах узбекского языка, анализ совместных топонимов региона, а также то, что эти названия возникли на основе атрибутивных, изафетических и предикативных отношений. выделено на основе данных, представленных в трудах тюркских учёных.

Ключевые слова

словотворчество, атрибутив, изофет, предикатив, составной топоним.

Annotation

The state examines the formation of words in the Turkic language, especially in some syntactic forms of the Uzbek language, the analysis of joint toponyms of the region, and also that these names arose on the basis of attributive, isaphetic and

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

predicative relations. highlighted on the basis of data presented in the works of Turkish scientists.

Key words

word formation, attributive, isophet, predicative, compound toponym

Kirish: Tadqiqot ishlari olib borilgan hududning toponimik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, joy nomlarining katta qismi sintaktik usul yordamida hosil qilingan. Bunday nomlash jarayoni til tizimidagi mavjud birliklarning o‘zaro grammatik bog‘lanishi orqali amalga oshiriladi. Xususan, so‘z birikmalari va gaplar asosida tarkib topgan toponimlar hudud atoqli ot birliklari tizimida yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa hududiy til xususiyatlari, etnolingvistik omillar va tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda tavsifli belgilanishi bilan tushuntiriladi. Sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan toponimlar ma’lum bir joyga bog‘liq holda tavsiflangan.

Sintaktik usul orqali “birdan ortiq asoslarni qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish mumkin. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, so‘z qo‘shish, analitik usul, morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb ham yuritiladi. Sintaktik usul til leksikasini boyitishning eng mahsuldor usullaridan biridir. Ushbu hodisa tilning onomastik sathi uchun ham tegishlidir”[1]. Hudud toponimiyasining asosiy qismini qo‘shma toponimlar tashkil qilishi ham ushbu mulohazaning to‘g‘ri ekanligini asoslaydi.

Metodlar: Ilmiy maqolada qiyosiy-tarixiy, etimologik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr va g‘oyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi statistik ma'luotlar o‘rganildi.

Natijalar: Aksariyat qo‘shma toponimlarni sintaktik usul bilan yasaganda birinchi yoki ikkinchi komponent sifatida otlar ishtirok etadi (toponimlar atoqli otlar qatoriga kirishi bilan izohlanadi) hamda sifatlar, sonlar va ayrim hollarda, fe’l shakllari ham uchraydi. Eng ko‘p quyidagi tuzilma turlari uchraydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Turi: ot+ot Qorovultepa (qo‘riqlov qo‘rg‘oni), Qozoqovul, Tatarqishloq, Gadoyariq, Ayimariq, Qirg‘izovul, Naymanqishloq, Shaytontepa, Tentakovul va boshqalar.

a) sodda tub otlarning birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Qiyattepa, Darvozaqir, Naymanko‘l, Qiyatko‘l, Qazovul, Kampirjar, Qirg‘izovul, Jauquduq va boshqalar;

b) tub va yasama otlarning birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Bolasoliq, Qumsoliq, Urunbayqo‘rg‘on, Abdullaqo‘rg‘on, Mullao‘lgan va boshqalar;

v) sifat va sodda tub otlar birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: O‘g‘risoy, Puchuqtepa, Soliqtepa, Ulug‘tepa, Qumorvoztepa va boshqalar;

g) sodda tub ot va birlik sondagi 3-shaxs egalik qo‘shimchasini olgan ot birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Jarboshi, Jau joli va boshqalar;

d) qaratqichli ot va birlik sondagi 3-shaxs egalik qo‘shimchasini olgan ot birikuvi bilan yaratilgan toponimlar: Muytenning qayig‘i, Qizonaning qayig‘i va boshqalar.

Murakkab toponimlarning tarkibiy tuzilishi tahlil qilinganda, ularning asosiy sintaktik modeli ot + ot shaklida shakllanganligi kuzatiladi. Ushbu tuzilma asosan ko‘l, ariq, qishloq, ovul, jar, quduq, qo‘rg‘on kabi geografik obyektlar nomlari bilan ifodalanadi. Murakkab toponimlarning birinchi komponenti aniqlovchi vazifasini bajarib, uning semantik yuki obyekting xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, sifat + ot tarkibidagi toponimlar keng tarqalgan bo‘lib, ular geografik obyektlarning turli jihatlarini tavsiflashga xizmat qiladi.

Bu turkumga mansub toponimlar quyidagi semantik guruhlarga ajratilishi mumkin:

a) suv va tuproqning ta’m xususiyatlari va fizik jihatlari: Sho‘rquduq, Achchiqquduq, Achchiqko‘l, Sho‘rqishloq – ushbu toponimlar tabiiy obyektlarning sho‘rligi, achchiqligi kabi fizik-kimyoviy tavsiflarini aks ettiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

b) geografik obyektlarning relyef xususiyatlari: Do‘ngariq, Chuqurariq, Oqsarido‘ng, Chuqurko‘l kabi nomlar hududning relyef tuzilishi, balandlik-pastlik xususiyatlarini bildiradi.

v) hududning joylashuvi va geografik strukturasini ifodalovchi toponimlar: Qirovul, Do‘ngqishloq, O‘rtaovul, O‘rtabo‘z, Yangiovul – ushbu nomlar joyning markaziy yoki chekka qismda ekanligi, hududiy bo‘linishi kabi omillar bilan bog‘liq.

Murakkab geografik nomlarning shakllanishi, ma’lumki, turli sintaktik konstruksiyalarni toponimlashtirish orqali sodir bo‘lgan. Hududning qo‘shma toponimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bu nomlar atributiv, izafetik va predikativ aloqa asosida paydo bo‘lgan.

Atributiv aloqalar asosida yaratilgan toponimlar. Atributiv aloqalar asosida yaratilgan konstruksiyalar aniqlovchi+aniqlanuvchi turdagi shakllanishlardir. Ma’lumki, qo‘shma toponimlarning aksariyat qismi aniqlovchili turga kiradi. Qoida tariqasida, bunday shakllanishlarda hal qiluvchi omil birinchi komponent bo‘lib, ikkinchisini aniq obyektlarning umumiy sonidan ajratib turadi, masalan: Qorabuloq, Oqsu, Oqtepa, Qoratepa, Qirqkapa (Qirq loy uylar), Qizilqum, Oqqum, Do‘ngqishloq (yuqori qishloq), Do‘ngariq (balanddagi ariq). Ushbu bog‘lanish asosida shakllangan murakkab konstruksiyalar ikki turga bo‘linadi: izafet *(ar. idafa – qo‘shmoq, qo‘shimcha) – ba’zi eroniy va turkiy tillardagi atributiv konstruksiyalarning ayrim turlarini bildirish uchun ishlatiladigan atama)* aloqa asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar va aniqlovchi + aniqlanuvchi aloqasi asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar. Bu hodisa, asosan, qozoq tilining ilmiy grammatikasiga xos bo‘lib, ot egalik qoshimchasi yoki izafet bilan belgilanadi va qozoqcha nomlarga xos sintaktik aloqani ko‘rsatadi. Masalan, *Iliyasning belgisi, Xan Şarbağ, Shadmanquduq, Shansharbayquduq, Turdimuratning to‘lderi* va b. Izafet asosida yaratilgan qo‘shma toponimlarga misol bo‘la oladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘zbek tili ilmiy grammatikasida bunday tuzilmali nomlar qaratqich-qaralmish asosida bolib, moslashuvli birikma hisoblanadi.

Qaratqich-qaralmish asosida yaratilgan qo‘shma toponimlar. Shuni ta’kidlash kerakki, geografik nomlarni soddalashtirishning toponimik qonuni tufayli moslashuvli qurilish asosida shakllangan ko‘plab toponimlar grammatik ma’nosini yo‘qotdi. Masalan, O‘rinboyariq (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Mirzaravot (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Gadoyariq (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) nomlari dastlab O‘rinboyning arig‘i (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) – O‘rinboy qazdirgan ariq, Mirzaning ravoti (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma), Gadoyning arig‘i (qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, moslashuv: to‘liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgili kelishik va egalik, otli birikma, sodda birikma) shakl ko‘rinishida edi. Ularda aniqlovchi va aniqlanuvchi belgilari bor edi, ammo vaqt o‘tgan sari komponentlar o‘rtasida sintaktik aloqalar uzilib, hozirda kundalik hayotda O‘rinboyariq, Mirzaravot, Gadoyariq nomlari ishlatiladi.

Tuzilishiga ko‘ra, bunday konstruksiya asosida paydo bo‘lgan toponimlar ikki turga bo‘linadi: aniqlovchi va aniqlanuvchi ko‘rsatkichlari tushib ketgan konstruksiyalar – toponimlar. Qo‘shma toponimlarning bu turi tadqiq etiluvchi hududni mazkur turdagi geografik nomlarning aksariyat qismini tashkil qiladi. Bunday birikmalarda asta-sekin aniqlovchi va aniqlanuvchi ko‘rsatkichlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yo‘qolishi yuz beradi. Masalan, Qizlarsupa (qarang. Qizlarning supasi > Qizlar supasi > Qizlarsupa), Qirg‘izovul, Sultonhovuz, Qazovul, Uyasko‘l, Ayimariq, Boyxojaquduq. Bu nomlar elliptirlanishga duchor keladi, lekin ma’nosi bo‘yicha aniqlovchi va aniqlanuvchi grammatik ko‘rsatkichlarning mavjudligi nazarda tutiladi. Konstruksiyalar – bu aniqlanayotgan narsaning ko‘rsatkichi saqlanib qolgan toponimlar. Ushbu turning nomlarida birinchi komponentning (aniqlovchini) grammatik ko‘rsatkichi tushirib qo‘yilgan, ya’ni aniqlanuvchi o‘zining tarkibida grammatik ko‘rsatkichni saqlab qoladi.

Aniqlovchi + aniqlanuvchi aloqa asosida paydo bo‘lgan qo‘shma toponimlar. Shuni aytish kerakki, tadqiq etiladigan hududning qo‘shma toponimlarni yaratish usuli nafaqat geografik nomlarning yaratilishida unumlidir, balki butun turkiy toponimiyada ham. Chunki real geografik voqelikni obyektning rangi, o‘lchami, tashqi xarakteristikalar va boshqa belgilari bo‘yicha atrof-muhitdan aniqlab olishning keng tarqalgan usulidir. Aynan shuning uchun tadqiq etiladigan massivda toponimlarning aksariyat qismi – murakkab hosilalardir, ularning birinchi komponenti – ot (ko‘pincha geografik atama). Masalan, Qorabuloq, Qoratepa, O‘rtaovul, Sho‘ruzoq, Sho‘rquduq, Sariqiya, Oqqum, Yangiyer, Achchiqko‘l, Achchiqquduq va h.k.

Predikativ (predikativlik gapni shakllantiruvchi sintaksik kategoriya bo‘lib, gap mazmuniga obyektiv borliqning hodisasi haqida xabar berish xususiyatini hosil qiladi) aloqalar asosida yaratilgan toponimlar. Predikativ aloqalar asosida yaratilgan toponimlar turkumi ega va kesim birikmalari bilan taqdim etilgan. Odatda bu nomlar, ya’ni ega+kesim birikmalari, ko‘rsatilgan joyda ro‘y bergan u yoki bu real voqea sababli paydo bo‘lgan. Tadqiq etilayotgan hududning predikativ aloqalar asosida yaratilgan toponimlarning soni kam. Odatda bu birikmalar to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa yo‘li bilan yaratilgan, ya’ni ega+kesim. Ushbu birikmalarda birinchi komponent harakat subyektini ifodalaydi, ikkinchisi esa harakatning o‘zini bildiradi. Masalan: Aliyarqochqon, Tuyao‘lgan, Mambetqazg‘on, Tuyatortar va boshqalar. Materialni yig‘ish paytida teskari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tartibdagi nom aniqlandi, ya'ni kesim+ega, bunda birinchi komponent harakatni ifodalaydi, ikkinchisi – harakat obyektni, masalan: Oqtiqon – asl. "qon oqdi". Ammo shu yerda M.D.Mamedov bu masalani boshqacha ko'rib chiqadi va shunday yozadi: Lenkoran pasttekisligi toponimlarida fe'l shaklidagi otlarning birikmasini taqdim etuvchi turkiy toponimlar guruhini qayd etish mumkin, masalan, otlar -an ga bo'lgan hozirgi zamon ravishlari bilan biriktirilishi mumkin: Odamo'tirg'an < odam yoki shaxsiy ism+o'tir g'an -an < ravish o'tirmoq fe'lidan I. Aftidan, bu aniqlovchi bizning Aliyarqochqon < Aliyar (shaxs ismi - Aliyar) + qochqon - qochmoq fe'lidan -on < ga ravish misollarimizga to'g'ri keladi

Muhokama va xulosa: Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekiston sharoitida o'zbek tili toponimikasi oldiga O'zbekiston Respublikasining til, xususan, toponimik siyosatini izchil, mukammal amalga oshirishga yo'naltirilgan, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tilshunoslikning zamonaviy ilmiy paradigmalariga asoslangan yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo'yilmoqda. Bu tilshunoslikning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan dolzarb vazifa bo'lib, toponimika sohasida ham tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik, nominatsion-motivatsion, etimologik, derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish va tasniflash hamda tavsiflash, shu asosida o'zbek toponimikasini ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: O'zbekiston,2018.-B.22.

2. Bo'tayorova G. S. Angor tumani onomastikasining system-struktur xususiyatlari. Magistrlik diss. Termiz, 2023. – 68 b.

3. Бегалиев Н.,Туробов А., Самарқанд топонимияси – Самарқанд: "*СамДЧТИ*", 2015. – 59 б.

4. Kilichev B. Onomastika. O'quv qo'llanma. Buxoro, 2023. – 180 b.